



Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific Journal

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://doi.org/10.30604/3060-4540)

Year: 2024 Issue: 1 Volume: 7

Published: 21.10.2024 <https://universaljurnal.uz>

International indexes

GOOGLE SCHOLAR

CROSSREF (OAK BAZA)

ZENODO

OPEN AIRE

EUROPUB

RESEARCHGATE (OAK BAZA)

SJIF



Abduqahharov Lochinbek Tursunali o'g'li
Namangan tumani 10-sonli umumta'lim maktabi
ijtimoiy fan o'qituvchisi
Uzbekistan

YOSH AVLOD TARBIYASIDA OILA MA'NAVIYATINING O'RNI

Abstract: The article discusses the need to educate young people in the family about the future generation, raising a healthy, well-rounded person as an innovative and important social issue, the sanctity of the family is the duty of parents and children, the mutual relations of the family, and the continuation of the chain of generations in the family, together with young people, on the most important issue, such as ideological and political knowledge, understanding the achievements of science and technology, contributing to the development of society and the family, realizing their rights and duties, and responsibilities.

Key words: family, ideological and political culture, social, political, value, tradition, knowledge, perfect person, ideology, immunity, issues of upbringing, development, innovation, duty, responsibility, necessity, task, society of generations, society, person, power.

Annotatsiya: Maqolada oilada yoshlarni kelajak avlod haqida qayg'urish, sog'lom, barkamol insonni voyaga yetkazish innovatsion yondashuv muhim ijtimoiy masala ekanligi, oilaning muqaddasligi, ota-ona va farzand burchi, oila a'zolarining o'zaro muomala-munosabatlari, oilada avlodlar zanjirini davom ettirish kabi munosabatlar bilan birga, eng muhim masala yoshlarga g'oyaviy-siyosiy bilim berish jarayonida ularning fan-texnika yutuqlarini anglab

etib, jamiyat va oila rivojiga o'z hissasini qo'shadigan, o'z huquq va burchlari, mas'uliyatni anglaydigan salohiyatli inson bo'lib yetishishlari zaruriyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: oila, g'oyaviy-siyosiy madaniyat, ijtimoiy, siyosiy, qadriyat, an'ana, bilim, komil inson, mafkura, immunitet, tarbiya masalalari, taraqqiyot, innovatsiya, burch, mas'uliyat, zaruriyat, vazifa, avlodlar davomiyligi, jamiyat, inson, salohiyat.

Аннотация: В статье забота молодых людей в семье о будущем поколении, воспитание здорового, зрелого человека до взрослой жизни является инновационной и важной социальной задачей, святости семьи, долга родителей и детей, взаимоотношений между ними. Семья, продолжая цепь поколений в семье вместе с молодежью, в процессе привития идейно-политических знаний по важнейшему вопросу, суд реализует научно-технические достижения, способствует развитию общества и семьи, и осознает свои права, обязанности и ответственность, мысли о необходимости вырасти в человека.

Ключевые слова: семья, идейно-политическая культура, социальная, политическая, ценность, традиция, знание, совершенный человек, идеология, иммунитет, вопросы воспитания, развитие, новаторство, долг, ответственность, необходимость, задача, общество поколений, общество, человек, власть.

Language: Uzbek

Citation: Abdukahharov , L. THE ROLE OF FAMILY SPIRITUALITY IN THE EDUCATION OF THE YOUNG GENERATION. Universal International Scientific Journal, 1(7), 55–58. Retrieved from <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/1162>

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14033542>

O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab mamlakatda yoshlarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash borasida islohotlar hayotning barcha sohalar bilan uzviy bog'liq holda amalga oshirilmoqda. Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar - yaxshilik va ezgulik, olijanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir. Shuning uchun ham aynan oila muhitida paydo bo'ladigan ota-

onaga hurmat, ularning oldidagi umrbod qarzdorlik burchini chuqur anglash har qaysi insonga xos bo'lgan odamiylik fazilatlar va oilaviy munosabatlarning negizini, oilaning ma'naviy olamini tashkil etadi[]. Oila bizning xalqimizda muqaddas qadriyat sanaladi. Uni asrab-avaylash, komil insonlarni voyaga yetkazish eng avvalo, er-xotinga bog'liq. Shu bois, bugun yurtimizda oilani mustahkamlash borasida tegishli huquqiy me'yorlar yaratilib, oilalarni har jihatdan qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash, yoshlarni katta hayotga tayyorlash hamda sog'lom farzandni voyaga yetkazish masalasiga davlat siyosati darajasida keng e'tibor qaratib kelinmoqda. Bu kabi huquqiy me'yorlar ham oila rishtasini bog'layotgan yoshlarning ertangi taqdiri yanada mustahkam bo'lishi va ajralishlar sonining kamayishiga muhim omil bo'lib

xizmat qiladi. Yoshlarimizning barkamol bo'lib yetishishida mahalla, oila jamoat tashkilotlari va ta'lim muassasalari alohida o'rin egallaydi. Kelajak avlod haqida qayg'urish, sog'lom, barkamol insonni voyaga yetkazishga intilish xalqimizga xos milliy xususiyatlardandir. Darhaqiqat, barkamol avlod dastlab oilada vujudga keladi, oila muhitida yaxshi yoki yomon insonlar bo'lib voyaga etadi. Oilaviy ma'naviyatni yuksaltirishga shaxs sifatida xar bir oila a'zolarining muayyan ma'naviy dunyoga ega bo'lishi ular o'rtasidagi munosabatlar asosida vujudga keladi. Oilada ota va onaning ma'naviy fazilatlari er-xotinlik munosabatlarining sharqona an'analari, insoniylik va axloqiylik darajasini belgilab beradi. Oila ma'naviy olami o'zaro hurmat, qadrlash, hamkorlik, murosasozlik, mehribonlik, rahmdillik, mehr-oqibat, sabr-bardoshlilik, insonsevarlik, olijanoblik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat kabi ma'naviy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirishi muhimdir. Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiya bilan uzviy aloqada bo'lsagina, o'sib kelayotgan yosh avlod farovonligini ta'minlash mumkin. U yoki bunisining yo'qligi tarbiya jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Oilada yoshlar g'oyaviy-siyosiy madaniyatini shakllantirish, tarbiya samaradorligini oshirish ko'p jihatdan ota-onalarimiz tarbiya jarayonining usul va uslublarini to'g'ri qo'llay bilishlariga ham bog'liqdir. Bunda, avvalambor, tajribaga tayanish, maqsadga erishishning eng ta'sirchan usullarini tanlash, amaliyotda sinalgan uslublarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Tarbiya jarayonidagi professionalizm shunisi bilan ham xarakterliki, oilada ota-onalarimiz yoki yoshi

katta avlod vakillari nafaqat o'zlari yoki o'zgalar tajribasiga tayanadi, balki tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini ochib beruvchi ilmiy bilimlarga ham suyanadi. Biroq ijtimoiy hayot o'zgaruvchan va serqirra ekanligini inobatga oladigan bo'lsak, faqatgina o'tmish tajribasiga yo'nalganlik samarali tarbiya jarayonini toraytirib qo'yishi muqarrar. Ayniqsa bugungi kundagidek tub islohotlar amalga oshirilayotgan sharoitda yoshlarning qadriyatlari, kayfiyatlari, intilishlari, qiziqishlari o'zgarayotgan vaziyatda g'oyaviy-siyosiy madaniyatni shakllantirish tizimiga innovatsion yondashuv alohida dolzarblik kasb etadi[]. Mamlakatimizda olib borilayotgan kuchli ijtimoiy siyosatning asl ma'nosi bolani, onani, farzandni va qariyalarni ijtimoiy muhofaza qilishga qaratilgan. Bu yillarning nomlanishidan ko'rinadi. Inson manfaatlari, Oila, Ayollar... Sog'lom avlod, Onalar va bolalar, Qariyalarni qadrlash, Mehr va muruvvat... Ijtimoiy himoya yili va nihoyat "Sog'lom ona va bola yili". Oilaga sadoqat, ota-onaga oqibat, aka-ukalarga mehrlilik, o'sib kelayotgan yosh avlod ongi, Vatan tuyg'usini mustahkam qaror toptirish bu ma'naviyatimiz va qadriyatimiz asosidir. Oila a'zolari o'rtasida o'zaro hurmat, mehr-muruvvat va oqibat omillari sog'lom muhitni yaratadi, sog'lom tarbiya oila a'zolari o'rtasida mehr oqibat, maqsadlar birligini yuzaga keltiradi. Oiladagi ma'naviy muhitni barqarorlashtirish ota-onada farzandlar, farzandlar oldida ota-onaga nisbatan burchlarni, ularning jamiyat oldidagi burch va ma'suliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi[]. Oila tarbiyasi bo'yicha Buyuk mutafakkirlarimiz asarlarida, muqaddas kitoblarimizda o'ziga xos fikr-mulohazalar bildirgani diqqatga sazovordir. Jumladan,

islom ta'limotida farzand tarbiyasi haqida quyidagicha ta'kidlanadi: " Islomda tarbiya ta'limdan ko'ra ustunroq va keng qamrovlidir. Chunki tarbiya bolani uyida, ko'chada, maktabda o'zini tuta bilish odoblarini, aql bilan ish yuritib, jismini, nafsini o'ziga bo'ysundirishdek og'ir ishni yo'lga qo'ydi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqida ta'kidlaganidek, "Bugungi kunda yurtimizda tobora keng tarqalib borayotgan. "O'z bolangni o'zing asra" degan da'vat faqat quruq shior bo'lib qolmasdan, har bir ota-ona, har bir fuqaroning qalbiga chuqur kirib borishi amaliy harakatga aylanishi zarur. Buning uchun bu masalani, ya'ni ota-onalarning farzandlar tarbiyasi uchun mas'uliyatini va burchini huquqiy asosda mustahkamlab qo'yish vaqti keldi, deb o'ylayman". Bu so'zlarni inobatga olib farzandlarimizni sog'lom e'tiqodli, jismonan baquvvat qilib tarbiyalash ham ota-ona zimmasiga yuklanadi. Shularni hisobga olgan holda oilada yoshlarga chuqur va mustahkam bilim berish, dunyo voqealaridan xabardor etish, texnika va axborot yutuqlarini to'g'ri anglab yetish, uning rivojiga o'z hissasini qo'shadigan salohiyatli, g'oyaviy yuksak inson bo'lib yetishishi zaruriyatini ular ongiga singdirish, g'oyaviy barkamollik mezonlaridan sanalgan insonparvarlik, bunyodkorlik, xulq-atvor qoidalariga rioya etish, vatanparvarlik va milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish, huquqiy va estetik

madaniyatni tarbiyalash, san'at sirlari bilan oshno etish, insonni jaholatga mahkum etuvchi ichkilikbozlik, giyohvandlik va har qanday vayronkor g'oyalarga ergashib ketmasligining oldini olish kabi eng muhim masalalar bilan bir qatorda yoshlarimiz ongi va ruhiyatiga sog'lom g'oyaviy-siyosiy ruhiyatni tarbiyalash masalalariga ham e'tibor qaratilsa ayni muddao bo'lar edi.

Xulosa qilib aytganda, oilada yoshlar g'oyaviy-siyosiy madaniyatini shakllantirish tizimiga innovatsion yondashuv muhim ijtimoiy jarayon bo'lib, yoshlarimizda ob'ektiv voqea va hodisalarga nisbatan ongli munosabat, mustaqil fikrlash, tafakkur qilishni tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, yot va begona buzg'unchi, vayronkor g'oyalarni chetlab o'tib, ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan, inson ruhiyatiga kuchli ta'sir o'tkazib, ularni maqsad-muddao sari yetaklaydi. Jamiyatning axloqiy-ma'naviy majburiyatlarini o'z ichiga qamrab olgan shaxsning siyosiy tamoyillari, siyosiy ong mulohazalari yoki mayllarini boshqarish, insonning umumiy baxt-saodatga yo'naltirilgan faoliyati adolat va erkinlikka xizmat qiluvchi jamiyatni ishlab chiqish, ijtimoiy va ma'naviy hayotda qo'lga kiritgan yutuqlar, milliy va ma'naviy qadriyatlarimizni e'zozlab, asrab-avaylashni o'ziga dasturulamal qilib oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Ma'naviyat-2008.
2. O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi.
3. M. Imomnazarov. Milliy ma'naviyatimizning rivojlanish tarixi. TDPU, 2012-yil
4. "<http://www.manaviyat.uz-post-view-97>"
5. "<http://www.muslim.uz-index.2805>"